

Janubiy Orolbo'yi faunasiga bag'ishlangan kitob nashrdan chiqdi

O'zR FA Zoologiya instituti Entomologiya laboratoriysi katta ilmiy xodimi Allabergen Nurjanov muallifligida «Фауна и экология прямокрылообразных насекомых Южного Приаралья» nomli monografiya chop etildi.

А. А. НУРЖАНОВ

ФАУНА И ЭКОЛОГИЯ ПРЯМОКРЫЛООБРАЗНЫХ НАСЕКОМЫХ ЮЖНОГО ПРИАРАЛЬЯ



Mazkur monografiya Janubiy Orolbo'yi to'g'riqanotsimon hasharotlari bo'yicha umumiy ma'lumotlarni o'z ichiga qamrab olgan bo'lib, unda to'g'riqanotsimon hasharotlarning tur tarkibi, taksonomik holatlari, tarqalish areallari, landshaftlar bo'yicha joylashuvi tahlil qilingan. Shuningdek, to'g'riqanotsimon

hasharotlarning ekologik xususiyatlari va zararkunanda turlarning populyatsiya sonini boshqarishdagi ekologik xavfsiz bo'lgan usullarini ishlab chiqish to'g'risidagi dolzarb masalalar atroficha muhokama qilingan. Ushbu kitob biologlar, entomologlar, ekologlar, o'simliklarni himoya qilish yo'nalishi mutaxasislari, doktorantlar, magistrler va boshqa tegishli mutaxassislikdagi talabalar uchun mo'ljallangan.